

EKOLOGIYA VA ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISHNI TEXNOLOGIYA DARSLARIDAGI AHVOLI

Toxirova Anbarjon Xamid qizi

Annotatsiya. Maqolada insonlar uchun global muammaga aylangan bugunimiz va kelajagimiz bo'lgan ekalogiya va atrof muhitni muhofaza qilish tabiatni asrash har bir insonning eng muhim vazifalaridan biri ekanligi buni texnologik talimda ham o'rgatish maqsadga muvofiq ekani bayon etilgan.

Kalit so'zlar; ekalogiya, atrof muhit, glabal, texnalogiya, qayta ishlash.

Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ta'lim sohasida ham yosh avlodga bilim berish bugungi kunda butun dunyo bo'ylab olimlar, siyosatchilar va atrof-muhitni muxofaza qiluvchilar uchun muhim ahamiyatga ega. Global ekologik muammolar davom etar ekan va kuchayib borar ekan, atrof muhitga zarar bermaslik tabiatni asrashni yosh avlodga o'rgatish kelajagimizni himoya qilishdir. Bugungi kunda ekologik talimni boshqa davlatlar tajribasidan o'rganish va boshqa joylarda amalga oshirilayotgan samarali strategiyalarni o'quvchilarga o'rgatishni Texnalogiya darslarda ham yo'lga qo'yish tabiat muhofazasida qo'yilgan yana bitta qadam bo'lar edi. Ushbu maqola atrof-muhitni muhofaza qilishni boshqa tabiiy fanlar qatorida texnalogiya ta'limini o'qitishda ham erisha olishimiz mumkun bo'lgan natijalarga qaratilgan.

Chet elda ekologik talim qanday ulardan nimalarni o'rgana olishimiz mumkun? Yaponiya va Ispaniya davlatlarida yoshlarga ekologik ta'lim tarbiya berish borasida amalga oshiriladigon ishlarni ko'rib chiqamiz.

Yaponiya maktablarida o'quvchilarni dars mashg'ulotlaridan so'ng, o'zlari xonalarni tozalashlari, yuvishlari, farrosh shtatini yo'qligi o'rnak olsa bo'ladigan xolatdir. Maktablarda berilgan ushbu ekologik tarbiya yoshlarga shunday singdirilganki, 2022-yilda o'tkazilgan jaxon chempionatida yapon muxlislarini stadionda o'zlari o'tirgan joylarini futbol uchrashuvi yakunlangandan so'ng yig'ishtirib, tartibga tushurib qo'yishlari, "Yapon madaniyati" atrof muhitga bo'gan etibori sifatida butun dunyoni xayratga soldi. Bularning barchasi maktablarda o'rgatilib boriladi.

Ispaniyada o'quvchi va talabalarning ekologik bilimlarini kengaytirish uchun davlat ta'lim muassasalarida, hamda xususiy ta'lim muassasalarida alohida mashg'ulotlar o'tkazilishi odat tarziga aylangan. Har kuni maktablarda tozalik soatlari tashkil qilingan. O'quvchilarga eng avvalo ko'chada jamoat joylarida atrof-muhitni asrash, ko'kalamzorlashtirilgan hududlarni avaylash, ekologik xavfsizlik bilan bog'liq hayotiy ko'nikmalarni o'rgatadilar.

Chet el talimidan o'rnak oladigan taraflari birqancha.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Barqaror rivojlanish kuni tartibi”da jahon miqyosida insonlarning bexatar yashash darajasini ta’minlash choralari belgilab berilganligi, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, ekologik ta’lim-tarbiyaning salmog‘i va ahamiyatining nechog‘li yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu esa, ekologik ta’lim-tarbiya yordamida tabiatda sodir bo‘layotgan vaziyatlarni adekvat baholay oladigan, global va mintaqaviy ekologik muammolar zamirida to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan, ekologik bilimlarini maqsadli va manzilli qo‘llay oladigan mutaxassislarini tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda [4].

Tabiatning inson vajamiyat uchun ahamiyati juda katta va turli-tumandir. Uni inson ehtiyojini qondirish jihatlariga qarab, iqtisodiy, ilmiy, sog‘lomlashtirish, tarbiyaviy va estetik kabi ahamiyatlarini farqlash mumkin. [1-5]

: so‘nggi yuz yil ichida dunyo aholisi salkam 4 barobarga; inson yaratgan texnik vositalarning o‘rtacha harakat tezligi -100 barobarga; energiya olish miqdori -1000 barobarga; harbiy qurollar quvvati - 1000000 barobarga ortdi. Hozirga kelib yer yuzidagi qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlarning - 70 %, o‘rmonlarning - 50 %, biologik resurslarning – 70%i, chuchuk suv zaxiralarning - 20 %i insonlar tomonidan o‘zlashtirilib foydalanilmoqda. Yiliga yer qa‘ridan turli maqsadlarda 120 mlrd. tonna turli minerallar va tog‘ jinslari qazib olinmoqda, 900 km¹ toza-chuchuk suv sarflanmoqda, ekin maydonlariga 500 mln. tonna mineral o‘g‘it va 4 mln. tonnadan ziyod turli zaharli pestitsidlar qo‘llanilmoqda, 3 mlrd. tonna neft mahsulotiari ishlatilmoqda, 250 mingdan ortiq yangi kimyoviy moddalar sintez qilinmoqda. [1-11]

Bundan ko‘rinib turibdiki ekologiya va atrof muhitga kata zarar yetmoqda. Demak ekologiya atrof muhitga bo‘lgan etiborni kuchaytirish lozim.

Fan-texnika taraqqiyoti jadallashgan sari insonning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlari ham borgan sari faollashib, u tabiiy boyliklarni ishlab chiqarishga bugun kechagidan, ertaga esa bugungidan ko‘proq hajmda jalb qilish harakatida mehnat qiladi. Tabiatdan boyliklarni tortib olish va ulardan insoniyat ehtiyojiga ko‘proq sarf qilish kuchaygan sari ming yillar davomida barqaror bo‘lib kelgan ekologik muvozanat buzilib, inson bilan tabiat o‘rtasidagi munosabat murakkablashib, tabiiy holat falokat yoqasiga kelib qoldi. [2-23] butun dunyo bo‘ylab bugungi kunda bu dolzarb muammoga yechim izlanmoqda. Davlatimizdahan bu borada qator ishlar olib borilmoqda.

Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 2-fevral kuni chiqindilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish va hududlardagi ekologik holatni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish bo‘yicha prezidentimiz qator takliflarni elon qildi. Loyihada mishi chiqindi to‘plash qamrovini 95% ga qaytaishlash hajmini 40% ga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Hammangiz yaxshi bilasiz, xalqimiz azaldan tabiatni muqaddas deb bilgan. Tuproqni, suvni, havoni, ostonasini pok saqlashga intilgan. Xalqimizda “Birni kessang, o‘nni ek” degan dono maqol ham bejiz aytilmagan.

Oilada yangi farzand dunyoga kelsa, unga atab nihol ekilgan. Afsuski, mana shu ezgu odatlar bugun deyarli yo'qolib ketdi. Bugun dunyo miqyosida texnika va texnologiya, sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya bilan bog'liq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqayotgani bejiz emas. Biz bu masalada faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o'ylab ish tutmasak, ko'zlagan maqsadimizga erisha olmaymiz", — deydi davlat rahbari.

15-noyabr kuni butun dunyoda chiqindilarni ikkilamchi qayta ishlash kuni hisoblanadi va shu kuni jamoatchilik e'tibori chiqindilardan foydali xomashyo ishlab chiqarish lozimligiga qaratiladi.

Yurtimizda ham bu borada doimiy ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan maishiy chiqindilarni boshqarish, ularni qayta ishlab, elektr energiyasi va boshqa foydali mahsulotlar olish tizimi yo'lga qo'yilmoqda. Shuningdek, aholidan hosil bo'ladigan chiqindilarni qayta ishlashga yo'naltirish borasida investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda ham bu borada doimiy ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan maishiy chiqindilarni boshqarish, ularni qayta ishlab, elektr energiyasi va boshqa foydali mahsulotlar olish tizimi yo'lga qo'yilmoqda. Shuningdek, aholidan hosil bo'ladigan chiqindilarni qayta ishlashga yo'naltirish borasida investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Texnologiya darslarida ekologik ta'lim — bu o'quvchilarga atrof-muhitni asrash, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni berishga qaratilgan ta'lim jarayonidir. Quyida texnologiya darslarida ekologik ta'limni qanday tashkil etish mumkinligi haqida ba'zi fikrlar:

1. Mavzularni ekologik kontekstda o'rganish

- Texnologik jarayonlarda atrof-muhitga ta'sirini tahlil qilish.
- Energiya tejash texnologiyalari va qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rganish.

- Qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirish usullari.

2. Amaliy mashg'ulotlar

- Qayta ishlangan materiallardan foydalanib loyihalar yaratish.
- Energiya samaradorligini oshiruvchi qurilmalarni yasash.
- Atrof-muhitga zarar keltirmaydigan texnologiyalarni sinovdan o'tkazish.

3. Ekologik muammolarni muhokama qilish

- Iqlim o'zgarishi, ifloslanish va tabiiy resurslarning kamayishi haqida suhbatlar.
- O'quvchilarda ekologik ongni shakllantirish uchun munozaralar tashkil etish.

4. Interaktiv metodlar

- Video va animatsiyalar yordamida ekologik jarayonlarni ko'rsatish.
- Ochiq darslar, ekskursiyalar orqali tabiiy muhit bilan yaqindan tanishtirish.

5. Loyihaviy ishlar

- O'quvchilarni ekologik mavzularda kichik loyiha yoki tadqiqot ishlarini bajarishga rag'batlantirish.
- Masalan, maktabda chiqindilarni ajratish tizimini yaratish, energiya sarfini kamaytirish usullarini aniqlash.

Agar hozirda maktabingizda texnologiya darslarida ekologik ta'limni qanday olib borish bo'yicha aniq metod yoki loyiha kerak bo'lsa, ayting, batafsil yordam beraman!

Xulosa

Kelajak avlodlarimiz bizdan keyin yaxshi tabiiy muhitda yashashlari uchun texnologiya darslarini ahamiyati katta. Bu nima degani? Bu – dars jarayonida toza ishlash atrof muhitni ifloslamasdan chiqindilarni o'z vaqtida yig'ishtirib maxsus qutilarga tashlash o'rgatilib boriladi. Daraxt ekib, bog' yaratish kabilarni o'quvchilarga amaliy bajartirib ko'nikma hosil qilinadi. Bunga texnologiya darslarida o'quvchilar qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. P.S.Sultonov. "Ekologiya va atrof muhiti muhofaza qilish" Musiqa nashriyoti. T-2007y
2. A.A.Nazarov. "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish". Barkamol fayz mediya nashriyoti T-2018y
3. Shavkat Mirziyoyev raisligida 2-fevral 2022-yil hududlardagi ekologik holatni yaxshilash, "yashil makon" loyihasi.